

ISSN 2181-7324

# ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ



№ 1/6/1 ⚡ 2019



Ижтимоий-  
гуманитар  
фналар  
йўналиши

Направление  
социально-  
гуманитарных  
наук

Social-  
humanitarian  
sciences

ВЕСТНИК НУУЗ ⚡ АСТА NUUz

# ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

## ВЕСТНИК НУУЗ

### АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ  
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ  
1997  
ЙИЛДАН  
ЧИҚА  
БОШЛАГАН

2019  
1/6/1

Ижтимоий-  
гуманитар  
фанлар  
туркуми

Бош муҳаррир:

А.Р. МАРАХИМОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

А.С. ТЎРАЕВ – б.ф.д.

Таҳрир ҳайъати:

Муртазаева Р.Ҳ. – т.ф.д., проф.

Юнусова Х.Э. – т.ф.д.

Кобзева О.П. – т.ф.д.

Одилов А.А. – т.ф.н., доц.

Тўйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Нурматова М.А. – ф.ф.д.

Курбонов М. – п.ф.д., проф.

Мардонов Ш.Қ. – п.ф.д., проф.

Ғозиев Э.Ғ. – псих.ф.д.

Мўминов А.Ғ. – с.ф.д.

Ганиева М.Ҳ. – соц.ф.д., проф.

Каримов Б.Н. – фил.ф.д., проф.

Менглиев Б.Р. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Халикова М.И. – фил.ф.н.

Маматова Ё.М. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Масъул котиб: К. РИХСИЕВ

ТОШКЕНТ – 2019

Хамрайева Н. Р. Талқин qılısh psixologik tadqiqot predmeti sifatida.....	150
Бердиёрова Ш. А. Тренерлик фаолиятида спортчиларни тайёрлаш тизими методикаси масалалари.....	153
Dovudova G. A. Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi.....	156
Қодирова М.К. Мактабгача ёшдаги болаларнинг перцептив – коммуникатив ривожланиши ҳакида.....	159
Эшмуродов О.Э. Оилавий мухит ва оилавий муносабатлар психологиянинг ўрганиш предмети сифатида.....	162

#### Филология

Абдуллаева О. “Давлат тили” концептининг когнитив структурасига доир .....	165
Abduraxmanova N.A. O‘zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturining lingvistik ta’minotini ishlab chiqishda o‘zlashma so‘zlar bilan bog‘liq aytim masalalar.....	169
Абдурахманов М. Инглиз тилида фаол кўлланадиган кискартмалар (аббревиатурулар)ни таржима килиш муаммолари .....	171
Азизова Ф.С. Фразеологизмларнинг лингвомаданий ҳусусиятлари .....	174
Азимова Ж.Ф. А.Қаххор ва а.п.чехов хикояларининг киёсий-типологик таҳлили .....	177
Aripova N. The main cases of the use of the subjunctive mood in English .....	180
Ёдгоров Ж.Ж. Матн проекциясида паремиологик бирлик .....	183
Жафаров Б.С. Олтин ўрдада яратилган таржимонлар китоби .....	186
Жуманиёзова Э.К. Методы активного обучения на уроках английского языка.....	190
Жўреава М. Саробга айланган баҳт.....	193
Зияев А. И. Турли тизимли тилларда интенсификация деинтенсификация концептуал семантикасини фонетик сатҳда ифодаланиши .....	196
Зоиров А.А. Немис ва ўзбек тилларида “Замон” концептининг когнитив моделлари .....	200
Исломова С.И. Чўлпоннинг “Ҳазон” шеъри матний тадқики.....	203
Ismailova O.F. Innovative technologies for training foreign language in the high education .....	206
Кучкарова М.Х. Создание и анализ исторического произведения Худойберди Тўхтабаева «Золотая голова мстителя» .....	209
Кодиров Н.М. Глобаллашув шароитида ахборот ҳавфсизлигини таъминлашнинг ижтимоий жиҳатлари .....	211
Мазлитдинова Д.Т. Проблемы творчества ф.саган в переводе произведений на узбекский язык .....	214
Муратова Н.Ф. Инфографика визуал коммуникация воситаси сифатида: шаклланиши, тушунчаси, аудиторияга таъсири .....	218
Назаров Д.А. Ҳикояда калб манзаралари ва руҳият кенглиги тасвири .....	221
Нурмуратова Ҳ.Я. Инглиз ва ўзбек тили таржималаридағи муаммолар ва уларнинг келиб чиқиш сабаблари.....	225
Омонов Б. Гапнинг тил тизимида ифодаланиши .....	228
Пулатова Н.Б. Трансформация усвоенных знаний иностранного языка в процессе глобализации.....	230
Рахимова М. Сўз номемасининг семиотик масалалари тадқикига доир.....	232
Рахматуллаев Д.С. Ўзбек шеъриятида хиссият тўлкни .....	235
Рахмонкулова Д. Когнитив тилшунослик ва лингвомаданиятишшунослик ҳакида айrim мулоҳазалар .....	235
Сабирова Н.Э. Хоразм достонларида поэтик кўчимлар ва уларнинг ишлатилиш тамойиллари .....	241
Солижонов М.З.Лингвокультурология миллий характер стереотипларини ўрганиш методологияси сифатида .....	244
Умарова С.У. Ҳаёт ва хаёл сўқмоклари ёхуд гайбулла ас-саломнинг кўнгил битиги .....	247
Уралов А.Б. Кўшма аффикс ҳамда “кенгайган шакл”лар муносабати .....	250
Ҳакимова М.Д. Одам ҳаётининг тирик томири .....	253
Ҳасanova Р. Аннемария шиммель ҳаёти ва ижодининг шарқ ва гарб адабий алоқаларига таъсири .....	257
Ҳасanova Ф.М. Инглиз лингвомаданиятида расмий - сиёсий қасамёдларнинг миллий - маданий ҳусусиятлари .....	259
Холиёров Ў.М. Акс маънонинг социал-фалсафий ва амалий лингвистик аспектига доир .....	261
Холмуратов И.Х. Умумтаълим мактаблари учун ўкув лугатлари тузиш зарурияти .....	265
Худжаева Р.М. Омонимияда – ўзига хослик, изчилик ва мукаммаллик .....	268
Ҳамдамов Ю. Ўзбекистонда янги телеканал : қувончлар ва ташвишлар (“O‘zbekiston 24” информацион – таҳлилий телеканали кўрсатувлари ҳакидаги баъзи мулоҳазалар) ....	271

## REZUME

*Maqolada komil inson muammosining o'rni psixologik jihatdan o'rganilgan. Komil insonga xos psixologik omillar tahlil qilingan, komillikka erishishning psixologik talqini ko'rsatib o'tilgan va komil insonga xos psixologik xususiyatlar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** komillik, shaxs, psixologik omil, individ, individuallik, psixologik yondashuv.

So'ngi yillarda butun dunyoni qamrab olgan texnika, ilm-fan taraqqiyoti inson ongini butunligicha egallab ulgirdi, natijada yosh avlodning ongi turli tuman g'oya va vositalar bilan boshqarilmoqda. Bu holat ularning jamiyat tomonidan o'rnatilgan normalarni to'laqonli bajarishiga to'sqinlik qilishi bilan bir qatorda, xulq-atvorlarida salbiy o'zgarishlarga ham sabab bo'lib qolmoqda. Bu kabi holatlarni oldini olish, muammolarni bartaraf etish dolzarb masalaga aylangan. Inson ongi va qalbi uchun kurash tarixan turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib kelgan bo'lsada, XXI asrda bu jarayon turli oqimlar va kuchlar tomonidan g'arazli maqsadlar yo'lida amalga oshirilayotgan, inson, jamiyat ma'naviyatiga mafkuraviy hurujlar orqali kechmoqda. Bu kabi hurujlarga inson qanday kurashishi kerak? Birinchi navbatda o'zida mustaqil fikrashga zamin bo'luchchi bilim hosil qilishi lozim. Bu bilim, albatta, o'qish, izlanish bilan hosil bo'ladi. Inson mustaqil fikri orqali har qanday masalaning mohiyatini tushunishga va u haqida mushohada yuritishga harakat qiladi. Bu borada muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham quyidagi fikrlarini bildirganlar "Yoshlarimizning mustaqil fikrلaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1,14].

Qadimgi Gretsiyada komil inson jismoniy baquvvat, odob-axloq va aqliy jihatdan mukammal, shuningdek, o'sha davrning qahramonlari qiyofasida tasavvur etilgan. O'sha davrda har bir faylasufning komil inson haqida o'z qarashlari mavjud bo'lgan. Shunday qarashlardan biri Suqrotga tegishli bo'lib, uning fikriga ko'ra komil inson birinchi navbatda intizomli fuqaro bo'lishi, jasur va chidamli askar bo'lishi, odamlar bilan muloqotda ochiq va quvnoq bo'lishi, baxs munozaralarda muntazam ishtirok etib borishi va shu kabi boshqa sifatlar bilan tushuntirgan.

Evolutsiya va futurologiya bilan shug'ullanuvchi olimlarning fikriga ko'ra komil inson bu-evolutsiya natijasida insonning jismoniy va ruhiy dunyosida shakllanuvchi imkoniyatlarining mahsulidir. Ularning tasavvurlariga ko'ra komil inson yuqori motivlarni boshqarishi, oliy ehtiyojlarni ya'ni bilim olish, ijodkorlikni rivojlantirishi, go'zallik va haqiqatni fahmlay olishi kerak. Ushbu tasavvurlardan shunday xulosa qilish mumkinki, komillik har bir insonning shaxsiyatida yotuvchi yashirin imkoniyat bo'lib, shaxsning o'zi komillikka erishishi yoki unga yeta olmasligi mumkin[2, 218].

Mashhur psixolog olimlar Karina Xorni hamda Alfred Adler komillikka intilishni insonni bosh motivlar

asosida harakatga undovchi faktorlardan biri deb tushuntiradilar. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, jismoniy yoki insonning boshqa nuqsonlari insonni rivojlantirish uchun noodatiy energiyani ishlab chiqaradi, yuqori darajadagi "kompensatsiya" orqali boshqa a'zolarini mukammal ishlashini ta'minlaydi. Karina Xornining ta'kidlashicha, har bir insonda har doim mukammallikka intilish jarayonida nevrotik holatlarni ifodalovchi sabablar bo'ladi. Ular insonni o'zini va atrofdagilarni qanday bo'lsa shunday qabul qilishga halaqit beradi, erishib bo'lmaydigan narsalar bilan uni band qilib qo'yadi[3,430].

Gummanistik psixologiya vakillari komilikka intilishni "Samoaktualizatsiya" – insonning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini ro'yogga chiqarishga intilishi bilan izohlashadi. Faqatgina "Samoaktualizatsiya" insonni tamoman ozodlikka chiqaradi, shuningdek, ijod bilan shug'ullanishga ham imkoniyat yaratadi. Rollo Meyning so'zlariga ko'ra, ijod har doim o'z-o'zini yaxshi ko'rish (ego) bosimi ostida bo'lishi mumkin emas. Haqiqiy komillikka erishish uchun inson o'ziga qaratilgan bosimlardan holi bo'lishi, ichki olamiga nazar solmasdan ijod qilishiga ruxsat berilishi, uning ishlarini ijod faktorlari (e'tirof etish, baholash, qiyoslash) bilan bog'lanmasligi zarur[4,6].

Karl Rodjers tomonidan ilgari surilgan nazariy muammolarda ham insonni kamoloti haqida ma'lum darajada bahs yuritiladi. Rodjers nazariyasiga ko'ra shaxs-o'zi haqidagi tasavvurlarini hosil qilishi yoki ularni o'zgartirishi mumkin bo'lgan aniq tushunchalar tizimini kengaytirish, deb tushuntiriladi. Bu tizimda shaxsga tashqi tomonidan uning o'ziga nisbatan va boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini o'zgartirish mumkin. Shaxsning qadriyatlari uning yakkayu yagonaligi va nodirligi Rodjers nazariyasining markazida turadi. Rodjersning ta'kidlashicha insonda hayot jarayonida paydo bo'lib boradigan "tajriba" nodir va takrorlanmasdir. Inson tomonidan shakllantirilgan bu olam haqiqiy olam bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi ham mumkin. Inson tomonidan shakllantirilgan olam va real faoliyat o'rtasidagi birlig Rodjersning ta'kidlashicha, bir-birini to'ldirishdir[5,9].

Jahon psixologiya fani to'plagan nazariy va amaliy ma'lumotlarga ko'ra, yosh, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlar sensor (subsensor, subsentiv), mnemik (xotira), verbal (so'z orqali) va mantiq psixofiziologik funksiyalarining dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperament xususiyatlarida va tug'ma mayllarda ifodalanishini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

\* Dovudova G.A. – JDPI o'qituvchisi

S.L.Rubinshteynning ta'limotiga ko'ra, insonning shaxs sifatida xarakterlanishining muhim psixologik daqiqasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi mavqeい, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy negiziga bog'liq, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni, nufuzi orqali ifodalanadi. Mavqening negizida esa hamisha uzlaksiz ravishda o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Odam ijro etishi lozim bo'lgan guruhiy faoliyatda ishtiroti, turmushga shaxsiy munosabati, kasb-hunarga aloqadorligi, oila va jamoadagi rolining ijtimoiy funksiyasi, insonning muayyan maqsadga, qadriyatga, ma'naviyatga yo'nalganligi uni faollashtiradi. Natijada shaxs barcha jabhalarda ishtirot etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ijtimoiy mavqe, rol, qadriyatga yo'nalganlik, shaxsga oid xususiyatlar, sifatlar, fazilatlar va xislatlar inson tuzilishining bo'g'inini tashkil etadi. Shaxsnинг xarakteristikasi faoliyat, xulq motivi xususiyatlarini, ijtimoiy fe'l-atvor tuzilishini belgilaydi. Uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar, belgilar sifatida joy egallaydi. Shaxsnинг birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni takomillashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy shakl-uning jamiyatdagi hayot yo'li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy tarjimayi holi hisoblanadi[6,528].

Shaxsga yondashuvda L.S.Vigotskiy o'ziga xos ilmiy-psixologik yo'l tutadi. Olimning fikricha, inson faoliyati subyekti sifatidagi asosiy tavsiflar qatoriga uning bu sohadagi taraqqiyoti mahsuli-ongi, faoliyati kiradi. Inson amaliy faoliyatning subyekti tarzida uning shaxsiy fazilatlarini va xislatlarini tavsiflabgina qolmay, balki mehnatning texnik vositalari va texnologiyasi kuchaytiruvchi, tezlashtiruvchi va yaratuvchi funksiyalar sifatida yuzaga keladi.

Muayyan psixologik holatlar hozirgi davrda ijtimoiy xususiyat kasb etib, umumbashariy ahamiyatga ega, chunki jahon mamlakatlari sivilizatsiyalanish darajalari tenglashmoqda. Xuddi shu sababdan ijtimoiy garmoniya tariqasida bir qator ilmiy-ijtimoiy, psixologik tushunchalar qator mamlakatlarga bir tekis yoyilib, hayot va faoliyatning turli qatlamlariga kirib bormoqda. Mazkur asr odamlarida esa axloqiy, jismoniy va aqliy komillik belgilari ko'rsatkichlari hamda bosqichlarining mezonlari, ularning oldiga qo'yiladigan talablarning mohiyati o'zgaradi[7,412].

Rus psixologi, sotsiologi V.A.Yadov yaratgan shaxsnинг ijtimoiy xulqini boshqarishga bag'ishlangan dispozitsion konsepsiya insonning kamolotini tadqiq etishga qaratilgan muhim izlanishlardan biridir. Psixologik talqiniga qaraganda, dispozitsiya shaxsnинг oldingi tajribasiga asoslangan holda (xulq va vaziyatni baholashga nisbatan), uning ongli tayyorgarligini bildiradi. Shaxsnинг ijtimoiy xulqi muayyan tayyorgarligi va holatiga bog'liq. Mazkur konsepsiya negizida yotuvchi bosh g'oya shundan iboratki, inson murakkab, har xil dispozitsion tuzilmalar tizimidan iborat bo'lib, uning xulqi va faoliyatini boshqarib turadi. Ushbu dispozitsiyalar ierarxiya tuzilishiga ega bo'lganligi uchun tizimni juda quyi va o'ta yuksak darajalar bilan belgilash mumkin. Shaxsnинг ijtimoiy xulqini dispozitsion boshqarish darajalarini aniqlashda

muallif D.N.Uznadze ustanonkasidan foydalangan. V.A.Yadovning farazicha (ehtiyojlarning boshqa darajalarida), murakkabroq ijtimoiy vaziyatlarda o'ziga xos dispozitsion tuzilmalar shakllanishi mumkin. Barcha dispozitsiyalar tarkibiy tuzilmasini yaratish uchun shartli ravishda inson qaysi ehtiyojlar va vaziyatlar ierarxiyasiga asoslanib harakat qiladi, degan muammoni yechmoq kerak.

V.A.Yadov shaxsnинг faollik chegarasini kengaytirish asosida faoliyat shakllarining ierarxiyasini o'rnatadi va bu ehtiyojlar ko'lamiga mutlaqo mos tushadi. Inson ehtiyojlar ro'yobga chiqishining birinchи doirasasi yaqin oilaviy davra hisoblanadi. Navbatdagisi kontakt (muloqot) guruhi sanalib, turmush, hordiq va mehnatning muayyan jabhasida individ bevosita harakat qiladi, natijada faoliyat muhiti kengaya boradi. Faoliyatning oxirgi muhiti ijtimoiy-sinfiy tuzilma sifatida mayjud bo'lib, kishi jamiyatning mafkuraviy, madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish uchun kirishadi. Ehtiyojlarning to'rt darajasi faoliyatning qaysidir jabhasida o'z ifodasini topadi[8,19].

Vaziyatlar ierarxiyasini mazkur sxema bo'yicha yaratish uchun individ muayyan ehtiyojlarga duch kelish tamoyili bo'yicha ro'yobga chiqarishga intiladi. Ushbu vaziyatlar faoliyat sharoiti sifatida talqin qilinishi va vaqt ko'لامи bo'yicha tuzilishga ega ekanligini tan olish mumkin. Vaziyatning quyi bosqichi tariqasida predmetli vaziyatlar mujassamlashadi, tez o'zgaruvchan, nisbiy qisqa muddatli sanaladi. Vaziyatning navbatdagagi darajasi-bu guruhiy muomala hisoblanib, kichik guruhlar doirasida individ faoliyatining o'ziga xos tomonini tavsiflaydi. Faoliyatning barqaror sharoiti mehnat davrasida aks etadi. Faoliyatning ushbu shart-sharoitlari vaziyatning uchinchi darajasini namoyon etadi. Muayyan uzoq muddatli, barqaror sharoitlarda shaxsnинг hayotiy faoliyati keng ko'lamda tavsiflanadi (jamiyatning tuzilish tipi, uning keng iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy doirasini aks ettiradi).

E.G'oziev tomonidan individ, shaxs, subyekt va komil inson to'g'risida mulohaza yuritilganda, ularning ongsizlik, onglilik, ongostlilik, ongustlilik, o'ta (super) onglilik holatlari bilan uzviy aloqadorligi alohida ta'kidlanadi. Inson ongli, ongosti va ongsizlik holatlaridan tashqari, o'zini-o'zi anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu boisdan, E.G'oziev V.Djems ta'limotiga asoslangan holda, ularni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi:

- 1) o'tmishdagi «Men» («o'zlik»);
- 2) hozirgi «Men» («o'zlik»);
- 3) bo'lg'usi «Men» («o'zlik»);
- 4) ideal «Men» («o'zlik»);
- 5) dinamik «Men» («o'zlik»)[9,33].

O'zini-o'zi anglash jarayoni milliy o'zlikni, ya'ni ma'lum davrni taqozo etadi, lekin u ham evolyutsion, ham revolyutsion yo'l ta'sirida amalgalashish mumkin. O'zini-o'zi anglash borliq va jamiyatni in'ikos etishning yuqori bosqichi sanalib, pirovard natija sifatida yuzaga keladi. O'zini-o'zi anglash besh tarkibdan iborat bo'lgan o'ta murakkab jarayon hisoblanib, uning tarkiblari birin-ketin anglashinish imkoniyatiga ega emas. Chunki insonda o'zining hayoti va faoliyati, yutuqlari, nuqsonlarini, xulq-atvor ko'nikmalarini, aql-

idrok darajalarini, ichki imkoniyat zahiralarini, qadriyat hamda ma'naviyat ko'rsatkichlarini oqilona baholashga qurbi yetmaydi. Shaxsda tanqid va o'zini-o'zi tanqid, baholash va o'zini-o'zi baholash, takomillashtirish va o'zini-o'zi takomillashtirish, rivojlantirish va o'zini o'zi rivojlantirish mutanosibligi maqsadga javob bera olmaydi. Individual va ijtimoiy ongni tobora rivojlanib borishi mazkur mutanosiblikni amalga oshirishni ta'minlaydi, bu esa muayyan muddatni talab qiladi[10, 28].

Psixologiya fanida insonning kamoloti to'g'risida bir qator nazariyalar yaratilgan bo'lsada, lekin ularning barchasida ham mukammallik yetishmaydi. Psixolog olimlarning aksariyati bolani kamol toptirish tug'ilganidan keyin boshla-nishi kerak, degan nuqtai nazarga asoslanganligi tufayli, ular tabiatning qudrati bilan ona ruhiyati o'rtasidagi bog'liqlik, uyg'unlik mavjudligi omilini e'tiborga olmaydilar. Bu holat ushbu masalani psixologiya sohasida yanada chuqurroq tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi.

Forobiyning fozil jamao haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari baxt-saodat va axloqiy kamolotga erishuv g'oyalari bilan uzviy bog'liqidir. U o'zining ijtimoiy, falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlarining markaziga inson va uning axloqiy kamolotini, maqsad-muddaolarini o'rganishni va baxt-saodatga yetishuv bosqichlarini ko'rsatishni qo'yadi. Alloma o'zining qarashlarida axloqiy kamolotga shunday ta'rif beradi: xayr-ehsonli ishlar va go'zal insoniy fazilatlarni aytadi. Dangasalik, bekorchilik, bilimsizlik, ongsizlik, kasbhunarsizlik kabi salbiy xislatalar-axloqiy kamolotga halaqit beruvchi deya ta'riflaydi. Forobiy ilm-fanni va aqlni baxt-saodatga erishishning asosiy vositasi deb bildi. Bundan tashqari mutaffakir musiqani inson tarbiyasiga ta'sir

ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rsatadi. Forobiyning jamiyat va axloq haqida yaratgan yaxlit ta'lomi bilan ilk o'rta asrlar va keyingi davrlarda sharq mamlakatlarida keng yoyildi.

Axloqiy barkamollik haqida yuqorida qator mulohazalarni keltirib o'tdik. Bugungi kunda axloq normalariga rioya qilish jamiyat hayotining rivojini belgilab beradi. Insonning xulq-atvori jahon psixologiyasida alohida maktab sifatida o'rganiladi. Bixevoirizm-xulq-atvor to'g'risidagi fandir. Bixevoirizm shaxs nazariyasi sifatida dastlab AQShda paydo bo'lgan.

Bixevoiristlar fikriga ko'ra shaxs-odam o'z hayoti davomida o'zlashtirayotgan tajriba o'rganilayotgan xulq modellari turkumidir. Ular odam xulqini odam organizmida kechayotgan ichki tuzilmalar va jarayonlar emas, uning tevarak-atrofi (ijtimoiy muhit) shakllantiradi deb hisoblaydilar.

Skinner psikoanalitik nazariyalarni o'ta mavhum, ya'ni taxminlarga asoslangan deb hisoblaydi. Psikoanalitiklar empirik tekshirish imkoniyati bo'limgan intrapsixik (mayllar, ongsizlik) omillar mavjudligini taxmin etishadi. Skinner odam xulqini uni shakllantiruvchi muhit nuqtai-nazaridan tadqiq etilishi lozim deb hisoblagan. Insonning barcha xattiharakatlari va uning xulqi muhit ta'siri bilan tushuntiriladi[10, 96].

Xulosa qilib aytganda, komil inson kategoriysi turli davrlarda turlicha yondashuvlar asosida o'rganilgan. Chunki har bir jamiyatda komil inson haqidagi tasavvurlar turlicha ko'rinishga ega bo'lgan. Insoniyat taraqqiyoti, fan-texnikaning jadal rivojlanishi uni yanada kengroq o'rganishga, u haqida yangi bilimlarni hosil qilishga sabab bo'lgan. Shu boisdan ham ushbu masala falsafa, psixologiya, sotsiologiya singari ijtimoiy fanlarning predmetiga aylangan.

## ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бир- галикда барпо этамиз - Тошкент: «Узбекистан» НМИУ, 2016. - 146
2. Бернацкий. В.О. Философия: Конспект лекции. М.: 2008. 218-219 с.
3. Маслоу, А. Г. Дальние пределы человеческой психики / А. Г. Маслоу // пер. А. М. Татлы-баевой / под ред. Акулиной Н. Н. - СПб. : Евразия, 1997. - 430 с.
4. Г. В. Иванченко. «Идея совершенства в психологии и культуре» Смысл; М.; 2007. 6 с.
5. Г. В. Иванченко. «Идея совершенства в психологии и культуре» Смысл; М.; 2007. 9-10 с.
6. Зиглер Д. Теории Личности – СПб.: Питер Пресс, 1997. 528 с.
7. Рубинштейн С.Л. Человек и мир. -М.: 1998. -412 с.
8. Холназарова М.Х.Накшбандия тариқатида комил инсон муаммосининг психологик хусусиятлари. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014, 19 б
9. E.G'oziyev.Yoshdavrлari psixologiyasi. -T -1994. - 33 б.
10. Холназарова М.Х.Накшбандия тариқатида комил инсон муаммосининг психологик хусусиятлари. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014, 28 б

## РЕЗЮМЕ

В статье психологически исследуется роль целостных человеческих проблем. Проанализированы психологические факторы совершенного человека, описана психологическая интерпретация совершенства и описаны психологические характеристики совершенного человека.

**Ключевые слова:** совершенство, личность, психологический фактор, индивидуальность, индивидуальность, психологический подход.

## REZUME

The article explores the role of complete human problems psychologically. Psychological factors of a perfect person have been analyzed, the psychological interpretation of perfection has been described, and the psychological characteristics of a perfect person are described.

**Key words:** perfection, personality, psychological factor, individually, individuality, psychological approach.